


2019-yilning yanvar-noyabr oylarida Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 4 293,1mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,9% ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2,5% ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat 90,9% ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 5,0% ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 1,6% ga o'sishi hisoblanadi.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushi, % da



2019-yilning yanvar-noyabr oylarida Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 109,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,5 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 901,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 90,9 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 27,4 %, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 18,2 %, boshqa nometal meniral mahsulotlar ishlab chiqarish 12,7 %, kiyim ishlab chiqarish 6,9 %, tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

2019 yil oxirgi oylarida sanoatninig ishlab chiqarish indeksi, % da



Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019 yil
yanvar-noyabr
oylarida

Ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari

O'sish sur'ati,
foizda

46 175,0

Paxta chigit, t.



88,5

20 211,5

Paxtadan yigirilgan ip, t.



2,7 m

54 470,0



105,3

Trikotaj yoki qulda to'qilgan ustki kiyimlar, ming dona



496,0

45,7

2019 yil
yanvar-noyabr
oylarida

Ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari

O'sish sur'ati,
foizda

O'simlik yog'i (tozalangan), t.

8 822,1



86,0

Paxta tolasi, t.

28 434,0



83,4

Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun
qo'rg'oshinli akkumulyatorlar, ming dona

732,3



110,5

Mashinada yoki qo'lda tuqilgan trikotaj polotnolar, t.

2 142,0



136,4

Paxta linti, t.

2 426,0



79,0

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 213,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,0 %ni) tashkil etdi. Shu bilan birga fizik hajmi indeksi 101,6 % ni tashkil etdi.




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 68,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ni) tashkil etdi.


Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizasiya qilish 1,2 % ni, suv yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash esa 0,4 % ni tashkil etdi.



Ishlab chiqarishninig texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat hajmi, mlrd.so'm




Ishlab chiqarishninig texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da




Jizzax viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-noyabr oylarida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 4 293,1 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,9 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm




2019 yil yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarish indeksi, % da



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jami sanoatda hududlarning yuqori ulushi Jizzax shaxri (51,5 %) va Do'stlik (10,9%), Paxtakor (6,3 %), Sh.Rashidov (5,9%), Zomin (5,9 %), Forish (4,1 %) tumanlariga to'g'ri kelgan.


2019 yilning yanvar-noyabr oylarida sanoat ishlab chiqarishda hududlarning o'rni, % da




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2 031,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 105,8 % ni, jami sanoatdagi ulushi esa 47,3 % ni tashkil etdi.

hajmi, mlrd. so'm




2018 yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlarining ulushi 68,4% dan 2019 yilning yanvar-noyabr oylarida 69,5 % ga ko'paygan.



Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 3 148,8 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, o'z navbatida Jizzax shaxrida 12 595,7 ming so'mni, Do'stlik tumanida 7 225,7 ming so'mni, Paxtakor tumanida 3 711,4 ming so'mni, Arnasoy tumanida 2 573,0 ming so'mni tashkil etadi.


2019 yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari, ming so'm




Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning 1 dekabr holatiga faoliyat yuritayotgan 104 ta horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1086,5mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiyligi ishlab chiqarishdagi ulushi 25,3% ni tashkil etdi.

Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'mda




Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi sanoat korxonalarining umumi sanoat hajmidagi ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida 2 871,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 66,9 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi, % da




Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2019 yil 1 dekabr holatiga 2 776 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 946 tasi Jizzax shaxrida, 601 tasi Sharof Rashidov, 254 tasi G'allaorol, 215 tasi Zomin, 116 tasi Forish, 108 tasi Zarbdor, 99 tasi Paxtakor, 96 tasi Do'stlik, 86 tasi Baxmal, 78 tasi Mirzacho'l, 78 tasi Zafarobod, 55 tasi Arnasoy, 44 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.

2019 yil 1 dekabr holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



2019 yil 1 dekabr holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Sanoat statistikasi bo'limi
telefon: (71) 230-83-47